



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil
yanvar-mart*





SIRDARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI XVI. DEMOGRAFIK HOLAT

Sirdaryo viloyatida 2024-yil 1-aprel holatiga doimiy aholi soni **917,9** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **3,9** ming kishiga yoki **0,4 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **395,4** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **43,1 %**), qishloq aholisi soni **522,5** ming kishi (**56,9 %**) ni tashkil etdi. Viloyat ma'muriy-hududiy jihatdan 3 ta viloyat bo'ysunuvidagi shahar va 11 ta tumanga bo'lingan, aholi zichligi 1 kv. km ga 214,5 kishiga to'g'ri keladi. Ma'muriy markazi – Guliston shahri bo'lib, aholisi 100,0 ming kishi.

Doimiy aholi soni

917,9 *ming kishi*

Tabiiy o'sish

+4,1 *ming kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar joylarda




43,1%

Qishloq joylarda




56,9%

Sirdaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar 2024- yil 1-aprel holatiga




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni 2024- yil 1-aprel holatiga



2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, viloyatimizda doimiy aholi sonining 31,9 % mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,3 % mehnatga layoqatli yoshdagilar va 9,8 % mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1- yanvar holatiga



Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-mart holatiga




2024-yil yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **50,0 %** farzandsiz, **23,6 %** bitta farzand bilan, **26,4 %** ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi


1-aprel holatiga, ming kishi

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	900,8	917,9	101,9
<i>shahar:</i>			
Guliston sh	96,9	100,0	103,2
Shirin sh	19,4	19,4	100,0
Yangiyer sh	47,0	48,3	102,8
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin t	55,2	56,0	101,4
Boyovut t	136,9	139,4	101,8
Sayxunobod t	82,0	83,0	101,2
Guliston t	78,3	79,9	102,0
Sardoba t	69,5	70,6	101,6
Mirzaobod t	79,4	80,8	101,8
Sirdaryo t	135,3	137,7	101,8
Xovos t	100,9	102,8	101,9

QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR




Shahar va tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti 2024- yil yanvar-mart holatiga




2024- yil yanvar-mart oylarida **5,1** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **22,2** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2023- yilga nisbatan **-2,7** promillega pasayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-mart oylarida **24,9** promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR



Sirdaryo viloyatida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti


2024- yil yanvar-mart holatiga



2024- yilning yanvar-mart oylarida **1,0** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan ko'rsatkich **0,5** promillega ko'paygan (2023- yilning yanvar-mart oylarida **4,0** promille bo'lgan).


O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-mart holatiga, kishi




2024- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **64,3 %** – Qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **5,6 %** – Ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **3,2 %** – Nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **6,5 %** – Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **1,1 %** – Yuqumli va parazit kasalliklardan **9,7 %** – O‘simtalardan vafot etganlar va **9,6 %** – Boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR




Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-mart, birlik



2024- yilning yanvar-mart oylarida **1,1** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **4,7** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida **4,9** promille bo'lgan).


NIKOHDAN AJRALISHLAR



■ Nikohdan ajralishlar, ming kishi ● O'sish sur'ati, % da


Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-mart, birlik




2024- yil yanvar-mart oylarida **0,4** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,7** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-mart oylarida **1,8** promille bo'lgan).

JAMI KO‘CHIB KELGANLAR




Ko‘chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-mart holatiga




JAMI KO'CHIB KETGANLAR



Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-mart holatiga



2024- yilning yanvar-mart oylarida **1,9** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **8,3** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,4** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida **8,7** promille bo'lgan).

Aholining migratsiya ko'rsatkichlari (yanvar-mart, kishi)

	<i>Kelish</i>		<i>Ketish</i>		<i>Migratsiya saldos</i>	
	<i>2023- yil.</i>	<i>2024- yil.</i>	<i>2023- yil.</i>	<i>2024- yil.</i>	<i>2023- yil.</i>	<i>2024- yil.</i>
Sirdaryo viloyati	1 485	1 775	1 917	1 901	-432	-126
shaharlar						
Guliston	362	398	295	291	67	107
Shirin	83	33	53	92	30	-59
Yangiyer	185	224	123	127	62	97
tumanlar:						
Oqoltin	69	125	116	143	-47	-18
Boyovut	101	190	298	243	-197	-53
Sayxunobod	22	9	124	124	-102	-115
Guliston	204	171	156	170	48	1
Sardoba	80	89	150	160	-70	-71
Mirzaobod	125	212	158	150	-33	-62
Sirdaryo	133	168	186	183	-53	-15
Xovos	121	156	258	218	-137	-62

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.



Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 67 236-70-00